

## OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE THINKING IN TECHNOLOGY CLASSES

Khusayinova Guzal Abdurasulovna  
NamSU doctoral students  
e-mail: Khusainovaguzal@gmail.com

Erkinova Sitora Utkirjon qizi  
Student of Technological Education, NamSU

### ANNOTATION

This article provides an overview of the importance of analyzing creativity and creative thinking in young people in the process of teaching technology classes.

**Keywords:** Development of creativity, artistic talent strength and self-expression.

## O'QUVCHILARNING IJODKORLIK TAFAKKURINI TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA SHAKLLANTIRISH

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna  
NamDU doktoranti  
e-mail: Khusainovaguzal@gmail.com

Erkinova Sitora O'tkirjon qizi  
NamDU Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarda kreativlik-ijodiy tafakkur va fikrlash sifatlarini shakllantirish xususiyatlarini tahlil qilishni muhim jihatlari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, ijodiy qobiliyat, iqtidorni rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon qilish.

## ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Хусайинова Гузал Абдурасуловна  
докторанты НамГУ  
e-mail: Khusainovaguzal@gmail.com

Эркинова Ситора Уткирджон кызы  
Студент технологического образования, НамГУ

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности формирования креативного творческого мышления и качества рассуждения и учащихся, также приводятся сведения анализа свойств формирования креативности школьников

**Ключевые слова:** креативность, творческая способность, развития таланта, самопредставление, самореализация.

Tafakkur orqali inson odam va olam sirlarini o'rganishda o'zidan oldin hosil bo'lgan qarashlar, tushunchalar, farazlar, insoniyat tomonidan chiqarilgan xulosa hamda qarorlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilab oladi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi. O'quvchilarda ijodiy tafakkur-kreativlikni ular uchun qulay va qiziqarli bo'lgan sohalarda namoyon etib tarbiyalash ta'lim sohasining birinchi galdagi vazifasiga kiradi. Ijodkorlik va uni fikrlashning mantiqqa tayanishi esa bola 12-14 yoshga yetganda, u o'z tafakkuriga egalik qilib, uni boshqara bilganda yuzaga keladi. [1]

Ko'pgina hollarda o'quvchilarning noan'anaviy, yangicha (nostandart) yondoshilgan ishini ko'rgan odam buni faqat o'ta qobiliyatli yoki iste'dodli odamgina bajara olishi mumkinligi haqida o'ylaydi. Holbuki, odamlarni hayratga soluvchi bunday ishlarni hamma ham bajara olishi mumkin. O'quvchilarda layoqat, iste'dod, kreativlik har qancha hayratomuz bo'lmasin, ta'lim-tarbiyadan tashqaridagi faoliyatda kamol topa olmaydi. Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo'llaridan biri barcha o'quvchilarni kichik yoshidan mahsuldor ijodga va kasbga o'rganish bilan mashg'ul bo'lishga jalb etish, darslarni ijodiy tarzda tashkil qilish, turli xil noan'anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir. O'quvchi o'zini-o'zi kuzatish jarayonida o'ziga o'zi «Nimaga men bunga qiziqamanu, unisiga loqaydman?» kabi savollar, yoki «Men bu ishni bajara olaman», «Men eng chiroyli buyumni tayyorlay olaman» kabi oziga ishonch bo'lgan fikrlar paydo bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun muhim bo'lgan aqliy va ilmiy rivojlanish, kasbiy mahorat va ijodiy qobiliyat singari yetuk fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, ta'lim muassasalarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan maxsus ta'lim-tarbiya yotadi. Ayniqsa keng dunyoqarash, ilmiy salohiyat, mustaqil va ijodiy fikrlash xususiyatlari har bir o'quvchi-yoshlarda shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. [3]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, texnologiya fani darslaridagi mashg'ulotlarni muvafaqiyatli o'tish, texnologiya fani ta'lim va tarbiyasida sifat samarasiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarning kreativ fikrlashiga bog'liq ekanligini ko'ramiz. Texnologiya fani darslarini xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilar texnologiya fani va texnik ijodkorligini rivojlantirishga tayyorlash jarayoniga oid ko'nikma va malakalarini xilma-xil amaliy ishlarni bajarish orqali o'zlariga kerakli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni egallab oladilar. O'quvchilar mehnatining xususiyatlaridan biri ularga faqat bilim beribgina qolmay, balki ularning madaniy axloq qoidalariga xususan batartiblilik, ozodalilikni va boshqalarni o'rgatishdir. Shuning uchun o'qituvchining birinchi kunlaridan boshlab o'qituvchi kiyim-bosh va oyoq kiyimlariga qarash madaniy xulq-atvor qoidalariga o'rgatish mashg'ulotlarini rejalashtirish zarur. Bolalarni ana shularga yil davomida o'rgatib, keyinchalik ota-onalar bilan kelishgan holda, bolalaridan maktab qo'ygan vazifalarini bajarishlarini qat'iy talab qilish kerak.

Texnologiya fanida o'quv jarayonini tashkil qilish, o'quvchilarni muayyan texnologiya fani malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularni texnologiya faniga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiya fani darslari g'oyat zarurdir. [2]

O'qituvchining o'z fanini yaxshi bilishi o'quvchilarning muvaffaqiyat bilan o'qitishning eng muhim shartlaridan biridir. O'z fanini yaxshi bilgan o'qituvchi biror buyumni tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirib va ko'rsatib bera oladi, bu esa texnologiya fani amallarini o'quvchi to'g'ri idrok etishini ta'minlaydi. O'qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, bolalarga ko'rsatadigan buyum yoki narsani o'qituvchining o'zi oldindan tayyorlab ko'rishi lozim, chunki buyumni tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo'llashga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Agar o'qituvchining o'zi mahsulotlarni oldindan tayyorlasa o'quvchilarga uni tayyorlashning metod va usullarini ko'zda tutgan bo'ladi.

Texnologiya fani madaniyati malakalari ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o'rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini tushuntirib berish zaruriyati bilan birga qo'shib olib boriladi. Agarda bolalar yaxshi yoritilmagan sinfda, yoshiga mos kelmaydigan qo'pol, og'ir asboblardan ishlasalar, bu ularning ish natijalariga juda yomon ta'sir ko'rsatadi.

Mustaqil ish faoliyatida esa asosiy faol shaxs o'quvchidir. Lekin shunga qaramay darsning bu bosqichida o'qituvchining vazifasi benihoyat katta va ma'suliyatlidir. Bunday mashg'ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko'rsatib qo'ya qolish kifoya, o'quvchilarni erkin ishlashi kerak deb o'ylash katta xato bo'ladi. O'qituvchi mumkin qadar kamroq so'zlashni, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o'quvchilarga sezdirmay ularning harakterini kuzatishi, ularga yaqinlashish va uzoqlashishni, o'rniga qo'yib gapirishni yoki jim turishni o'rganish lozim. Qoloq o'quvchini yaxshi o'zlashtiriladigan o'quvchiga biriktirib qo'yish kerak. Masalan, tikishda o'g'il bolalar odatda orqada qoladilar ularga qizlar yordamini biriktirib qo'yish, yoki aksincha texnikaviy modellashtirishda o'quv tajriba hovlisidagi ishlarda o'g'il bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak. Shu tarzda o'quvchilarda o'zaro do'stona yordam hissi tarbiyalanadi. O'qituvchi har bir o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olib bolalarni ruhlantirishi lozim.

O'quvchilar mustaqil ishlayotganda o'qituvchi nifaoldek ko'rinadi, lekin aslida o'qituvchi oldida u rahbarlik qilish lozim bo'lgan xilma-xil xarakterli o'quvchi bor. Ayrim o'quvchilarni butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim, ayrimlariga ko'rsatma berish kifoya, qolganlari yordamga muhtojdir. Mustaqil ish mashg'uloti vaqtida bolalar qo'ng'iroqni ham sezmay qoladilar, hatto ishini davom ettirishga ruxsat etilsa quvonadigan hollar ham bo'ladi. O'zlariga yoqqan ishga sho'ng'ib ketib va tez ishlaydigan o'rtoqlarini ko'rib o'quvchilar bora-bora o'zlarining ish su'ratini tezlashtirishni odat qilib oladilar. O'qituvchi o'quvchilarning amaliy ishini o'z vaqtida tekshirish o'quvchining ishga

qiziqishini kamaytiradi. Ishni tekshirish va baholashga o'quvchilarning o'zlarini jalb qilish kerak. Bu bilan ular texnologiya faniga ongli munosabatda bo'lishlik, faollik va tashabbuskorlik xislatlari rivojlanadi. Amaliy mashg'ulot jarayonlari davomida tayyorlangan mahsulot natijalarini birgalikda tekshirish va baholash o'quvchilarning xotiralarida ma'lum bir buyumni tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir. Texnologiya fanidan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani avvalo darsda ishni yaxshi uddalay olmagan o'quvchilarga berish zarur.

O'qituvchining asosiy vazifasi har chorak uchun texnologiya fani darslarini shunday rejalashtirishdan iboratki, bunda o'qituvchi bolalar tomonidan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan kengaytirish va murakkablashtirish ishlarni va bolalar

jamoasini kundalik hayotida kerak bo'lgan buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutishi kerak.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan muhim talablar o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatlarini aktivlashtirishdir degan xulosa kelib chiqadi. O'quvchilarni aktivlashtirish ayniqsa o'qitishning zamonaviy bosqichi sharoitlarida anchagina murakkab pedagogik amaliyotdir. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini aktivlashtirishga yordam beruvchi vosita va usullarini tanlash o'qituvchining doimo diqqat markazida bo'lishi shart. O'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini bir qator usullar vastasida aktivlashtirishga erishish mumkin.

Har bir dars o'quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijobiy ko'nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim. Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi, balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan bog'lab olib borish ham zarur. Shuning uchun ham o'qituvchi o'zi o'qitayotgan bilimni bilishi lozim. Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o'qituvchi mazkur dars materialini asosida o'quvchilarning axloqiylikning qanday g'oyalarini anglashga shu bilan birga, diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog'i lozim. O'qituvchining asosiy vazifasi har chorak uchun mehnat darslarini shunday rejalashtirishdan iboratki, bunda o'qituvchi bolalar tomonidan hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan kengaytirish va murakkablashtirish ishlarni va bolalar jamoasini kundalik hayotida kerak bo'lgan buyumlar tayyorlash va boshqa ishlarni bajarish bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutsin.

Faoliyatning o'zi ongli ya'ni murakkab ko'nikma bosqichida davom etaveradi. Bu ko'nikma tarkibiga ko'pgina elementar malakalar kiradi.

Turli tabiiy va sintetik materiallarni to'plash, saqlash yo'llari, ishlov berish, o'quvchilarga darslarda olgan bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarini rejalashtirish va tanlashda, albatta mahalliy maxsulotlardan kelib chiqish, o'lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq tabiiy ustaxonalari va shu kabilarni e'tiborga olish kerakligini unutmash lozim. Bunday mahsulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarni o'stiribgina qolmay ijodkorlikni o'rgatadi, estetik hissiyotlarni shakllantiradi. Turli materiallarning o'ziga xos texnologik xususiyatlari xilma-xilki, ulardan narsalar yasashda material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak berishda ham foydalanish mumkin. Bolalardan turli tabiiy va sintetik materiallar bilan ishlash alohida qiziqish uyg'otadi. [2]

Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

1. Turli tabiiy va sintetik materiallarni to'plash va saqlash qoidalari bilan tanishish.
2. Turli tabiiy va sintetik materiallarga ishlov berish va rejalashtirish.
3. Turli tabiiy materiallardan nimani yasay olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish asboblarni tanlash.
4. Mustaqil fikrlab, ijodkorligini namoyon qilish.
5. Boshqa xil materiallar bilan tanishish (Yog'och, gazlama, metall chiqindilaridan oqilona foydalanish).
6. Turli mahsulotlar yaratishda konstrukturlik va ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.

O'quvchilar tabiiy va sintetik materiallar bilan ishlash ularda ijodkorlik qobiliyatini o'stiradi. O'qituvchi tabiiy materiallardan turli narsalar yasashni rejalar ekan o'quvchilariga:

-turli tabiiy va sintetik materiallarni xossasi va xususiyatlarni hisobga olgan holda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni uqtiradi.

-ularni shakli, ko'rinishlarni rejalab aniq biror buyum yasash yo'li bilan rejalashni o'rgatadi.

-asboblarni ishlatayotganda texnika xavfsizligini, chang-to'zon yutishdan, ish joyini tartibsiz qilishdan saqlanishni ta'kidlaydi.

-ish mazmunini sodda murakkabligiga qarab, bosqichma-bosqich sinflarga moslash yo'li bilan tejamkorlik tuyg'usini singdiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarda keng fikrlash, ijodiylik, ijodiy tafakkur – kreativlikni, ijodiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida turli xil usullar, rivojlantiruvchi texnologiyalar yordamida ular avvalo keng tafakkurni, irodaviy xususiyatlarni, o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini, faollik va faoliyatni, mehnat qilish ko'nikmalarini, maqsad sari intilish xususiyatlarini tarkib toptirish lozim. Ana shunda ta'lim-tarbiya maqsadlariga to'la ma'noda erishish mumkin. O'qituvchi va o'quvchilar bu maqsadlar yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, o'z ichki tabiiy imkoniyatlarini faol ishga solgan holda ijodiy qobiliyat va iqtidorlarini amalda keng namoyon qilishlari kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.A.Qo'ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova "Texnologiyadan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" Metodik qo'llanma.Toshkent 2011
2. Sharipov Sh.,Muslimov N.,"Texnik ijodkorlik va dizayn "Toshkent – 2007.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
4. Tokhtakhojaevich U. I., Abdurasulovna K. G., Kadyrovich U. S. Pedagogical technologies in the formation of creative competence in the educational process //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2022. – T. 4. – C. 13-19.